

HIKOYA MATNI USTIDA ISHLASHDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH
PIRLS XALQARO TADQIQOT DASTURI MISOLIDA

Xosilbekova Xursunoy Bektemir qizi
JDPU magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining hikoya matni ustida ishlash jarayonida nutqini o'stirish PIRLS xalqaro baholash tadqiqot dasturi misolida ko'rib chiqiladi.*

Annottatsion: *In this article, the development of speech of elementary school students in the process of working on a narrative text is considered on the example of the international assessment program PIRLS*

Аннотация: *В данной статье развитие речи учащихся начальных классов в процессе работы над повествовательным текстом рассматривается на примере международной оценочной программы PIRLS*

Kalit so'z: *hikoya, nutq, so'zlarning tub mohiyati.*

Key words: *story, speech, the essence of works.*

Ключевое слово: *история, речь, суть слов.*

Hikoya – kichik nasriy asar bo'lib, unda hayotiy voqealar aks ettiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda hikoya janri muhim o'rin tutadi. Hikoya matnida berilgan so'zlar, jumalarni to'g'ri o'qish, to'g'ri talaffuz qilish, ularning asl ma'nosini anglash orqali o'quvchilarining nutqi rivojlanib boradi. PIRLS xalqaro tadqiqot dasturi misolida o'quvchilar nutqini o'stirishni ko'rib chiqamiz. 4-sinf “O'qish” darsligida Rahim Bekniyoz qalamiga mansub “Mo'jiza” hikoyasi berilgan. Nafaqat bolalar, balki, kattalarni ham o'ylantirib qo'yadigan ushbu hikoya bilan tanishib chiqamiz:

MO'JIZA

Rahim Bekniyoz

O'lib tirilgan, ya'ni avvalo o'lib, so'ngra tirilgan quyonni ko'rganmisiz? Albatta, ko'rgan emassiz bunday «mo'jiza»ni.

Men-chi? Ko'rdim ham gapmi? Xo'p dog'da qoldirib ketgan kaminalarini shalpanquloq desangiz. Shuning uchun hech vaqt esimdan chiqmaydi bu voqea.

Quyonlar serob kuz yemishlaridan semirib, rosa jir boylagan paytda ovga chiqdim. Velosipedimni tanish cho'pon qo'rasida qoldirdim-da, miltiqni kiftimga ilib, ro'parada ko'rinib turgan qamishzor tomon ketdim. Mo'ljallab chiqqan «ovxonam» o'sha. Men o'tib borayotgan dala bu yil to'qaydan yangi ochilib ekilgani uchun paxta bitmagan, boriyam barvaqt yig'ib-terib olingan, endilikda unda g'ozadan ko'ra yaxshiroq yetilgan yovvoyi o't-xashaklar oyoq ostida qovjirab yotardi. Bunday sero't maydonda quyon o'tlashini bilardim, lekin yotoq qiladi, deb o'ylamagan edim. Qarasam, mendan atigi uch qadam narida shalpanquloqlarini kiftiga bosgan holda, ko'rpaday ajriqqa burkanib, bemalol uxlab yotibdi u. Qo'llarim beixtiyor miltiqqa yugurdi. «Yotgan joyida otaveraymi yoki qochirib otsammikin?» Miyamda yilt etgan bu savolga javob pishib yetilmay, miltiqning tepkisini bosganimni bilmay qoldim. O'q

quyondan bir qarich nariga tegib, yerni o'pirib yubordi. Quyon seskanib boshini ko'tardi-yu, badani dir-dir titrab, joyidan qo'zg'almadi.

Miltiqning uchini tekkizganimda, birdan sapchib o'rnidan turdi. Biroq gandraklab kelib, o'zini oyoqlarim ostiga urdi. Oyog'im bilan bosib olgach, yana hayron qoldim.

Biron yerida o'q izi ham, tiriklik alomati ham ko'rinmasdi. Qo'limga olganimda, u shalpayib qolgandi. G'alati o'ljani xaltamga joylab, qamishzor sari ravona bo'ldim. U yerda chiy qamish o'rib yurgan cholga ro'para keldim.

– Charchagandirsiz, ukam. Keling endi, birpas o'tirib nafas rostlang, – deb taklif qildi u. Xaltani yelkamdan olib, yerga qo'ydim-da, o'rilgan qamish ustiga o'tirdim.

Chol xurjunni ochib oldimga dasturxon yoydi, qovun so'ydi. Dasturxon atrofida guring quyushdi. Chol ham yoshligida ovchilik qilgan ekan.

– U zamonlar ovchilik alomat edi, ukam. Shu desangiz, bir safar...

Chol birdan hikoyasini kesib, ko'zlari olazarak bo'ldiyu, apil-tapil yonimda yotgan miltiqqa intildi:

– Quyon! Quyon qochdi

O'rnimdan sakrab turib miltiqni qo'limga oldim. Biroq kechikkan edim. Quyon yilt etib o'zini qamishzorga urib ketganini ko'rib qoldim, xolos.

– Xaltangizdan chiqib qochdi, chamamda.

Ha, xaltam bo'm-bo'sh, og'zi ochiq yotardi. Quyonning bu qilmishi meni battar tang qoldirdi.

– Bir gal menam shunday bo'lganman, – deb miyig'ida jilmayib hikoya qila ketdi chol. – Quyonni otgach, so'ygin, deb yo'ldoshimga uzatdim.

U bir qo'li bilan pichog'ini qinidan sug'urishga tutindi. Shu topda birdan quyonga jon kirs bo'ladimi? Ha, xoh ishonang, xoh ishonmang, o'lik quyonga jon kirdi! Jon-jahdi bilan tipirchilab, bir harakat qildi – quyonni qo'lidan qo'yvordi boyagi sherigim.

Quyoning ikkala orqa oyog'ida bir arslonning kuchi bor, deyishadi. O'shanday oyoqlar sharofati bilan arslondan ham qochib qutuladi jonivor. Bizam o'shanda sizga o'xshab orqasidan serrayib qolaverganmiz.

Keksa ovchining hikoyasi taskin berdi dilimga. Quyon otgan o'qimdan faqat behush bo'lib, xaltada hushiga kelganini payqadam.

Berilgan hikoyani tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, ushbu hikoyaning bolajonlar uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi, agar kelajakda xuddi shunday vaziyatga tushib qolganda qanday yo'l tutishi mumkinligini aytib o'tamiz. Shu bilan birgalikda hikoya o'qitish orqali o'quvchilar nutqini o'stirishning qanday usullaridan foydalanishimiz mumkinligini tahlil qilamiz. "Mo'jiza" hikoyasi orqali o'quvchilar nutqini o'stirishda PIRLS xalqaro ilmiy tadqiqoti misolida ko'rib chiqaylik. O'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning nutqini o'stirish va hayotga teran nigoh bilan qarashida ushbu tahlillardan foydalanish samarali ta'sir ko'rsatadi.

Savollar:

1) "Mo'jiza" hikoyasidagi quyonlar yana qanday nom bilan keltirilgan?

- a) chaqqonvoylar
- b) shalangquloqlar
- d) arslon

2) Quyonlar, asosan qanday joylarni yotoq qiladi deb o'ylaysiz?

- 3) Hikoyadagi so'zga olingan "tiriklik alomati" nima edi?
 - a) nafas olishi
 - b) harkat qilishi
 - d) yurak urishining sezilishi
- 4) Nima uchun quyon hikoyada g'alati o'lja deyilgan?
- 5) Chol u yerda nima qilayotgandi?
 - a) Ov qilayotgandi
 - b) o'tin terayotgandi
 - d) qamish yig'ayapti
 - e) qamish o'rib yuribti
- 6) Quyoning qochganini kim birinchi bo'lib ko'rdi?
 - a) ovchi yigit
 - b) chol
 - d) o'tkinchi kishi
- 7) Qochayotgan quyonni kim otmoqchi bo'ldi?
- 8) Nima uchun quyoning ikkala orqa oyog'ida arslonning kuchi bor deyishadi?
- 9) Quyonlar qaysi faslda semirishadi? Nima uchun?
- 10) Mo'jiza deganda nimani tushunasiz?
- 11) Sizning hayotingizda qanday mo'jizalar ro'y bergan?
- 12) Hikoya mazmunidan kelib chiqib unga yana qanday nom berish mumkin?

Berilgan hikoyani tahlil qilish o'quvchilar nutqi o'sishi uchun katta ahamiyatga ega. Chunki tahlil qilish orqali ular berilgan hikoyadagi notanish bo'lgan so'zlar, jummalarning ma'nosi bilan tanishadi. Tahlil uchun qayta o'qish orqali o'quvchilar nutqi ravon bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Mo'jiza" hikoyasini PIRLS xalqaro tadqiqoti misolida ko'rib chiqdik va bu o'quvchilar nutqini o'stirishda albatta samarali bo'loladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) "O'qish" kitobi. S.Matjonov, X.G'ulomova va boshqalar. Toshkent. "Yangiyo'l poligraf Servis" 2017. 136-bet
- 2) Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent "O'qituvchi" 1980. 245-bet
- 3) www.ziyouz.com kutubxonasi
- 4) A.Zunnunov va bosh Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi" 1992. 138-bet